



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025 yil 21-mart, № 57 (8952)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## TOSHKENT SHAHRI YURTIMIZDAGI YANGILANISHLARNING YORQIN TIMSOLIGA AYLANMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-mart kuni poytaxtimizda amalga oshirilayotgan qurilish va obodonlashtirish ishlari bilan tanishdi.



Mamlakatimizda investorlarga yaratilgan qulayliklar tufayli iqtisodiyotda xususiy sektorning ulushi oshib bormoqda. To'g'ridan-to'g'ri sarmoyalar kiritilib, sanoat, qurilish, savdo, xizmat ko'rsatish sohalarida istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Poytaxtimizning Yunusobod tumanida barpo etilgan "High Town City" majmuasi shulardan biri. U keng qamrovli bo'lib, savdo va ko'ngilochar markazi, biznes markazi, mehmonxona va zamonaviy turarjoylarni o'z ichiga olgan. Bunga 510 million dollar to'liq xorijiy investitsiya yo'naltirilgan.

Davlatimiz rahbari savdo markazidagi zamonaviy tijorat va xizmat turlarini ko'zdan kechirdi. 4 qavatli binoda savdo do'konlari, jumladan, mashhur brendlarning shoxobchalari ochilgan. Restoran va kafelar, ko'ngilochar o'yingohlar, sport maydonlari, kinoteatrlar el xizmatida. Yer ostida avtoturargoh bor.

Bir so'z bilan aytganda, bu yerda odamlar savdo qilishi, dam olishi, sport

bilan shug'ullanib, vaqtini chog' o'tkazishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Majmua bir kunda 5 ming kishiga xizmat ko'rsatish quvvatiga ega. Unda 1 ming 500 kishi ish bilan ta'minlandi.

Prezidentimiz majmuaning iqtisodiy ahamiyati va aholi uchun qulayligini e'tirof etib, investor va tadbirkorlarga ko'mak berish bundan keyin ham davlatimiz siyosatining strategik yo'nalishi bo'lib qolishini ta'kidladi. Milliy mahsulotlarimizni brendga aylantirish, ularni tashqi bozorlarda tanishtirish bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatmalar berdi.

Savdo markazida shinam kitob do'konlari ham ochilgan. Shavkat Mirziyoyev bu tashabbusni olqishlab, metro bekatlari, kutubxonalarda ham mo'ljaz kitob do'konlari tashkil etish maqsadga muvofiqligini aytdi.

Davlatimiz rahbari o'yin maydonchasidagi bolajonlarni ko'rib, samimiy mehri e'tiborini izhor etdi. Bugungi barcha sa'y-harakatlar mamlakatimiz kelajagi uchun qilinayotgani, buning uchun bolalar yaxshi o'qib, aqil va ijodiy

salohiyatini rivojlantirib borishi kerakligini ta'kidladi.

Yaqinda 24 qavatli, besh yulduzli mehmonxona ham barpo etilishi rejalashtirilgan. Unda 250 ta xona bo'lib, bir vaqtning o'zida 430 kishiga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Katta va kichik konferensiya zallari, suzish havzalari, restoran va do'konlarda zamonaviy qulayliklar yo'lga qo'yiladi.

Davlatimiz rahbariga shu yerda quriladigan zamonaviy uy-joylar loyihasi taqdimot qilindi. Unga ko'ra 1 ming 500 ta xonadondan iborat 28 ta ko'p qavatli uy bunyod etiladi. Majmua hovlisi avtomobillar uchun yopiq va yashil hudud bo'ladi. Bolalar bog'chasi, o'yin maydonchasi, tennis korti, yer osti avtoturargohi tashkil etiladi. Majmua hududi to'liq "Wi-Fi" bilan qamrab olinadi hamda binolarda shovqinsiz liftlar o'rnatiladi.

Toshkent shahrida jamoat transportini rivojlantirish loyihalari ham ko'rib chiqildi. Ma'lumki, Toshkent metropolitenini Toshkent traktor zavodi dahasigacha olib

borish rejalashtirilgan. Prezidentimiz avval taqdim qilingan loyihalarni qayta ko'rib chiqish, boshqa muqobil takliflar kiritish bo'yicha topshiriq bergan edi. Shunga muvofiq tayyorlangan yangi loyihaga ko'ra, metropolitenning Chilonzor yo'nalishi Toshkent traktor zavodi dahasigacha uzaytiriladi. Bu tarmoq 30 ta mahalla, 148 ming aholini qamrab oladi.

Yana bir loyihaga ko'ra, Bektemir tumanida Chirchiq daryosi yaqinida ko'p qavatli uylar, savdo va xizmat binolari qurish ko'zda tutilgan. Buning natijasida tumanda urbanizatsiya jadallashib, yangi markaz paydo bo'ladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Bektemir tumaniga tashrifi chog'ida Lykotta mahallasida bo'lib, qurilish va obodonlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishdi.

Bu yerdagi 37 ta ko'p qavatli uy va 1 ming 400 ta hovli 6 mingga yaqin aholi istiqomat qiladi. Mamlakatimizda mahallaboy amalga oshirilayotgan manzilli ishlar Lykotada ham o'z natijasini bermoqda. Yangi ko'p qavatli uylar qurilgan. Yo'laklar va ichki ko'chalar ta'mirlangan. Maydonchalarga gul va maysalar ekilgan.

O'tgan yili uch qavatli mahalla idorasi foydalanishga topshirilgan edi. Endi Davlat byudjeti hisobidan 358-umumta'lim maktabi qurildi. Prezidentimiz ushbu yangi muassasani ko'zdan kechirdi.

Ta'lim tizimiga bo'layotgan e'tiborning yorqin ifodasini bu yerda ham ko'rish mumkin. Qariyb ming o'rinni maktabda fan xonalari, kompyuter va xorijiy til xonalari, robototexnika to'garagi, laboratoriya zarur o'quv jihozlari bilan ta'minlangan. Kutubxona, sport zali, futbol maydoni va oshxonada bolalar uchun keng qulayliklar yaratilgan.

Pedagoglar bilan muloqot chog'ida bolalarning qobiliyatini to'g'ri shakllantirish, kasbiy ta'limni rivojlantirib, bitiruvchilarni kasb-hunarli qilib bitirishga yo'llash muhimligi ta'kidlandi. Xususan, axborot texnologiyalari, robototexnika, muhandislik kabi yo'nalishlarni kengaytirish, o'smirlarda harbiy-vatanparvarlik ruhini kuchaytirish vazifalari ko'rsatib o'tildi.

Mahalladagi yangi uylarning birinchi qavatlarida ikkita xususiy bog'cha tashkil etilgan. Ularning Navro'z arafasida ochilgan ota-onalar uchun bayramona tuhfa bo'ldi.

Ichki imkoniyatlarni ishga solib, aholi bandligini ta'minlash tamoyili bu

mahallada ham namoyon. 70 ta savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchasi, 2 ta ishlab chiqarish korxonasida ko'pchilik ro'zg'or tebratyapti. Prezidentimiz farmoyishi bilan e'lon qilingan dolzarb bir oylik doirasida tomorqadan unumli foydalanish, qishloq xo'jaligi ekinlari ekish qizg'in davom etmoqda.

Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida ko'chat ekib, yashillik yaratish ko'lamini kengaytdi. Poytaxtimizning Bektemir tumanida yana bir boqqa asos solindi.

Prezidentimiz davlat tashkilotlari va jamoatchilik vakillari bilan birga bu yerda ko'chat ekdi.

Lykotta, Majnuntol, Zilola, Rohat va Iqbol mahallalari orasidagi bu hudud avval qarovsiz joy edi. Elning birligi bilan yana bir yashil makon, aholi horidiq chiqaradigan park paydo bo'lmoqda. Uch gektarlik hududga o'rmon konsepsiyasi asosida uch ming tup daraxt va buta ko'chatlari ekildi. Ularning sug'orilishi va parvarishiga mas'ullar birlashtirildi.

Mahalla faollari, nuroniyalar va yoshlar bilan samimiy muloqot bo'ldi. Davlatimiz rahbari jamoatchilik vakillariga ushbu xayrli tashabbusga hissa qo'shayotgani uchun minnatdorlik bildirdi. Barchani kirib kelayotgan Navro'z bayrami bilan tabrikladi.

Prezident tashabbusi bilan e'lon qilingan dolzarb bir oylik doirasida mahallalarda dehqonchilik va obodonlashtirish ishlari safarbarlik bilan olib borilmoqda.

Bahorda 125 million tup ko'chat ekilishi mo'ljallangan. Bunda ekin joylarini to'g'ri tanlash, sug'orishni yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi bog'da ekilgan ko'chatlar ana shu ezgu amalning davomi bo'ldi.

"Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" davlat dasturiga muvofiq, bu yil ko'chatchilikka ixtisoslashtirilgan 18 ta o'rmon xo'jaligi tashkil qilindi. Ularda "ilm - loyiha - amaliyot" tamoyili asosida genetik seleksiya ishlari kuchaytirilib, plantatsiyalar kengaytiriladi. "Yashil olam" platformasi ishga tushirilib, ko'chatlarni onlayn sotib olish yo'lga qo'yiladi.

Yurtimizning barcha joylarida Navro'z ayyomi ko'tarinki ruhdan kutib olinmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev Bektemir tumanidagi Rohat mahallasiga tashrif buyurib, bayram sayilida ham qatnashdi.

Xizmat ko'rsatish va savdogaga ixtisoslashtirilgan mahallada 4 ming

nafar aholi yashaydi. Bandlikni ta'minlash bo'yicha yangi tizimga muvofiq, banklar ishtirokida mahallaning ichki imkoniyatlari yuzaga chiqarilmoqda. O'tgan yili yuzga yaqin aholi ishga joylashtirilgan, 256 nafar o'zini o'zi band qilgan, 13 nafari tadbirkorlik faoliyatini boshlagan. Ikkita ishlab chiqarish korxonasi, o'nlab savdo va maishiy xizmat shoxobchalari odamlarga qulaylik yaratmoqda.

Prezidentimiz ushbu korxonalarni ko'zdan kechirdi.

Mahallada ko'chalar obod, xonadonlar saranjom-sarishta. Ta'lim va tibbiyot muassasalari, sport maydonchalari, o'quv markazi, amfiteatr, hunarmandlar va axborot-kutubxona mahallalari, nuroniyalar maskani faoliyat yuritmoqda.

Davlatimiz rahbari ushbu maskanda tashkil etilgan sumalak sayilida qatnashdi, mahalla faollari, nuroniyalar bilan samimiy suhbatlashdi. Muloqotda joriy yili rejalari, jumladan, tinchlik-osoyishtalikka saqlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlari yaratish haqida so'z yuritildi.

Mahallangizdagi obodlikni, odamlarning kayfiyatini ko'rib, mamnun bo'ldim. Vaqti bilan barcha tumanlardagi imkoniyatlarni oshiramiz. Buning uchun eng asosiysi - tinchlik-ahillik kerak. Ilgari chegaralarimizda vaziyat qanday edi? Vazminlik bilan, siyosiy iroda bilan hamma masalalarga yechim topayapmiz. Barcha ishlarni quyi tizimda tashkil qilganimiz uchun 10 mingga yaqin mahallalarning holati yaqqol namoyon. "Mahalla yettilligi" orqali xonadonga yetib borilyapti. Odamlarning daromadini oshirish, kambag'allikni qisqartirish, yoshlar siyosatida hali ishlarimiz ko'p. Shuning uchun ta'limga, o'g'il-qizlarni o'qitishga katta e'tibor berishimiz kerak. Yoshlari bilimli va ma'naviyatli jamiyat, albatta, farovonlikka erishadi, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Rohat mahallasida umumta'lim maktabi, bolalar musiqa va san'at maktabi, "Barkamol avlod" markazi, akademik litsey faoliyat yuritmoqda. Yaqinda yangi maktabgacha ta'lim tashkiloti qurib bitkazildi. Bular ham yoshlar ma'rifatini oshirishga xizmat qiladi.

Ziyodulla JONIBEKOV,  
Ikrom AVVALBOYEV,  
Behruz XUDOYBERDIYEV,  
O'ZA muxbirlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

## AMALIY HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH REJALARI MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev 20-mart kuni bo'lib o'tgan telefon orqali muloqotda bir-birini va ikki mamlakatning birodar xalqlarini bahor ayyomi - Navro'z bilan samimiy qutlab, tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasidagi do'stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlashning eng dolzarb masalalari batafsil muhokama qilindi.

O'tgan yil avgust oyida Ozarbayjon Prezidentining O'zbekistonga davlat tashrifida erishilgan kelishuvlarga muvofiq amaliy hamkorlik bo'yicha rejalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Iqtisodiy hamkorlik yili doirasida birgalikda samarali ishlar olib borilayotgani alohida mamnuviyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi ortmoqda, avtomobilsozlik, to'qimachilik, elektrotexnika, energetika, qishloq xo'jaligi, turizm va ko'plab boshqa tarmoqlardagi loyihalar faol bosqichga kirgan.

Bundan tashqari, madaniy-gumanitar almashinuv doirasidagi tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Davlat rahbarlari xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashdilar, shuningdek, bo'lajak oliy va yuqori darajadagi ikki tomonlama uchrashuvlar va ko'p tomonlama sammitlar rejasini ko'rib chiqdilar.

O'ZA.

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

### UMUMMILLIY TOTUVLIK VA XORIJDAGI VATANDOSHLAR BILAN ALOQALARNI MUSTAHKAMLASHNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISHGA OID CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda umummilliy totuvlik, birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlash, barcha fuqarolarga teng huquq va imkoniyatlar yaratish, ko'p millatli xalqimizning jonajon O'zbekistonimiz farovonligiga daxldorligini kuchaytirish, xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni rivojlantirish, shuningdek, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan vazifalarning izchil amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida qaror qilaman:

#### I. Ustuvor vazifalar

1. Jamiyatda umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashning ustuvor vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

a) millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, jamiyatda do'stlik, o'zaro hamjihatlik, bag'rikenglik va birdamlikni mustahkamlash orqali yagona fuqaroviy o'zlikni shakllantirish;

b) O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash orqali ularning umummilliy taraqqiyotga daxldorligini kuchaytirish;

v) xorijdagi vatandoshlar jamoalari va

o'zbek diasporalarining milliy o'zligini saqlashga ko'maklashish hamda ularning ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatini Vatanimiz rivojiga safarbar etishni qo'llab-quvvatlash;

g) xalq diplomatiyasi mexanizmlari orqali xorijiy mamlakatlar bilan ijtimoiy-madaniy va do'stlik aloqalari hamda O'zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlash.

#### II. Sohani tubdan isloh qilish

2. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi negizida O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi (keyingi o'rinlarda - Qo'mita) tashkil etilsin.

#### 3. Belgilansinki:

a) Qo'mita millatlararo munosabatlar hamda xorijdagi vatandoshlar masalalari sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi, davlat organlari va tashkilotlarning ushbu yo'nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi;

(Davomi 2-betda).



## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLATLARARO MUNOSABATLAR VA XORIJDAGI VATANDOSHLAR MASALALARI BO'YICHA QO'MITASI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi "Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-52-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida qaror qilaman:

#### 1. Quyidagilar:

a) O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi (keyingi o'rinlarda - Qo'mita) to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

b) Mamlakatimizda umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash bo'yicha "Yo'l xarita" 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi Millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va hamjihatlikni ta'minlash bo'yicha jamoatchilik kengashlari Umummilliy birdamlik va hamjihatlikni ta'minlash

bo'yicha jamoatchilik kengashlari (keyingi o'rinlarda - hududiy jamoatchilik kengashlari) deb qayta nomlansin.

3. Vazirlar Mahkamasi Qo'mita huzuridagi jamoatchilik kengashining yangilangan tarkibi va hududiy jamoatchilik kengashlarining yangilangan (namunaviy) tarkibini davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar a'zolari, fan va madaniyat namoyandalari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillaridan iborat tarkibda tasdiqlansin.

4. Belgilansinki: a) Qo'mita huzuridagi jamoatchilik kengashi maslahat-kengash organi hisoblanib, Qo'mitaga yuklangan vazifa va majburiyatlarining bajarilishiga ko'maklashadi; b) hududiy jamoatchilik kengashlarining tashkiliy-texnik ta'minoti Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hamda tuman (shahar) hokimliklari tomonidan amalga oshiriladi.

(Davomi 2-betda).



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
F A R M O N IUMUMMILLIY TOTUVLIK VA XORIJDAGI VATANDOSHLAR BILAN ALOQALARNI MUSTAHKAMLASHNI  
YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISHGA OID CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

b) Qo'mita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasiga bevosita hisobdordir;

v) Qo'mitaga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan rais rahbarlik qiladi;

g) Qo'mita raisining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan ikki nafar o'rinbosari bo'ladi;

d) joylarda millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar bilan ishlash masalalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo'yicha o'rinbosarlari zimmasiga yuklanadi va ular ushbu masalalar bo'yicha Qo'mita oldida hisobdordir;

ye) Qo'mita O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining huquq va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

III. Umummilliy totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar

4. Qo'mita va milliy madaniy markazlarning umummilliy birdamlikni ta'minlash choralari kuchaytirishga qaratilgan quyidagi takliflari ma'qullansin:

a) har yili "O'zbekiston yagona Vatani" shiori ostida yurtimizdagi barcha millat va elatlar vakillarining o'zaro tengligi, birdamligini, ularning Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasini e'tirof etuvchi anjuman tashkil etish;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida bittadan ko'chalarni barcha millat va elatlarning madaniyati, urf-odatlari va an'alarini, o'zaro uyg'unlashgan millatlararo munosabatlarni ifodalagan "O'zbekiston madaniy boyligi" nomli ko'chalar sifatida tashkil etish;

v) "Birgalikda kuchmiz" shiori ostida turli millat va elatlar vakillaridan iborat eko-volontyorlar ishtirokida ekologik aksiyalarni o'tkazib borish orqali dolzarb masalalarni hal etishda

daxldorlikni anglash tuyg'ularini kuchaytirish;

g) turli etno-madaniy guruhlariga mansub taniqli shaxslar ishtirokida umummilliy hamijhatlikni ta'minlashga qaratilgan loyihalar, dasturlarni amalga oshirish;

d) turli millat va elatlar vakillarining O'zbekiston tarixi va bugungi kundagi barqaror rivojlanishiga qo'shayotgan hisssasi haqida hikoya qiluvchi filmlar va turkum ko'rsatuvlar yaratish.

IV. Xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashning yangi mexanizmlari

5. Vazirlar Mahkamasiga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining "Xorijdagi vatandoshlar orqali bilimlarni transfer qilish" (TOKTEN) dasturi namunasida xorijdagi vatandoshlarning Yangi O'zbekiston iqtisodiy qudratiga qo'shayotgan hissasini yanada oshirish maqsadida innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladigan inson kapitali transferini amalga oshirsin, bunda yuqori malakali mutaxassislarni barcha sohalarida sun'iy intellektni tatbiq etish uchun ta'lim, sog'liqni saqlash tashkilotlariga, qishloq xo'jaligi va xususiy sektor korxonalariga yo'naltirishga qaratilgan aniq tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni belgilasin.

6. Qo'mita Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank va Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda uch oy muddatda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida xorijdagi vatandoshlar ishtirokini rag'batlantirishga qaratilgan aniq asoslantirilgan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritin. Bunda:

a) xorijdagi vatandoshlar, diaspora vakillarining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kiritishini qo'llab-quvvatlash;

b) xorijdagi vatandoshlarning xayriya pul mablag'larini ijtimoiy foydali va maqsadli loyihalarni moliyalashtirishga qo'shishini qo'llab-quvvatlash;

v) xorijdagi vatandoshlar, diaspora vakillarining kapital bozoriga investitsiyalar kiritishini rag'batlantirish;

g) xorijdagi vatandoshlar, diaspora vakillari turizmini rivojlantirish masalalari nazarda tutiladi.

7. Qo'mita va "Vatandoshlar" jamoat fondi vasiylik kengashining tadbirkorlik platformalarini yaratish, jamiyat

hayotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ekologik barqarorlik, sifati ta'lim kabi masalalarda o'zaro fikr-mulohaza almashish maqsadida ekspertlik va ilmiy doiralr vakillari hisoblangan xorijdagi vatandoshlarning doimiy muloqoti ko'rinishida "Uz Global Think" forumini o'tkazish bo'yicha takliflari ma'qullansin.

8. Qo'mita "Vatandoshlar" jamoat fondi bilan birgalikda: a) har yili xorijdagi vatandoshlarning "Uz Global Think" forumini tashkil etsin va unda ilgari surilgan fikrlar asosida mamlakatimizning barqaror rivojlanish maqsad va vazifalariga xizmat qiluvchi takliflarni shakllantirib, Vazirlar Mahkamasiga kiritib borsin;

b) 2025-yil 1-sentabrga qadar birodar hududlar, do'stlik jamiyatlarini xorijiy davlatlar bilan ijtimoiy-madaniy aloqalarni rivojlantirishda "madaniy ko'priklarni aylantirish, xalq diplomatiyasi vositasida O'zbekistonning xalqaro imijini mustahkamlash choralari nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritin.

9. Quyidagilar: a) Madaniyat vazirligida millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar bilan ishlash bo'yicha vazifalarning qisqarishi hisobiga 3 ta boshqaruv shtat birligi Qo'mita tuzilmasiga o'tkazilsin;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo'yicha o'rinbosarlari kotibiyatlariga millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash vazifalari yuklatilsin;

v) Madaniyat vazirligi tuzilmasidagi "O'zbekiston" jurnali tahririyati" davlat muassasasi Qo'mita tuzilmasiga o'tkazilsin;

g) Qo'mitaning tashkiliy tuzilmasi 1-iloavaga muvofiq tasdiqlansin.

10. Qo'mita huquqlari

10. Belgilansinki, Qo'mita o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

a) Qo'mita vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan davlat organlari va tashkilotlaridan statistik, tahilliy materiallar, xulosalar va boshqa ma'lumotlarni so'rash va bepul olish;

b) davlat organlari va boshqa tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari, xalqaro tashkilotlar, xorijdagi vatandoshlar

orasidan yuqori malakali mutaxassislarni hamda ekspertlarni, shu jumladan, shartnoma asosida jalb qilish;

v) umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashga doir tashabbuslar bilan chiqish va takliflar kiritish.

12. Qo'mita raisiga quyidagi huquqlar berilsin: a) Qo'mita tarkibiy tuzilmalari o'rtasida aniq vazifa va funksiyalarni taqsimlash;

b) Qo'mita tuzilmasiga boshqaruv xodimlarining belgilangan umumiy shtatlar soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritish;

v) Qo'mita tarkibiy tuzilmasini tasdiqlash, xodimlarni lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish, shuningdek, ularni rag'batlantirish.

VI. Farmon ijrosini tashkil etish, ta'minlash va nazorat

13. Vazirlar Mahkamasiga bir hafta muddatda "O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritin.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 2-iloavaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 3-iloavaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

16. Qo'mita Adliya vazirligi, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritin.

17. Farmon ijrosini nazorat qilish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi R.Q.Davletov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,  
2025-yil 19-mart

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
Q A R O R IO'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLATLARARO MUNOSABATLAR VA XORIJDAGI VATANDOSHLAR MASALALARI  
BO'YICHA QO'MITASI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

5. Qo'mita huzuridagi jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

a) O'zbekiston xalqining birdamligini ta'minlash, xorijdagi vatandoshlarni tarixiy Vatani bilan birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosini kompleks tahlil qilishda ishtirok etish, ularning amalga oshirilishi yuzasidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

b) mamlakatimizda umummilliy totuvlik va hamijhatlikni mustahkamlash, O'zbekistonning xalqaro imijini oshirishda xalq diplomatiyasi mexanizmlaridan foydalanish borasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar tayyorlash va Qo'mitaga kiritish;

v) aholida O'zbekiston xalqining umummilliy qadriyatlarini ustuvorligini anglash tuyg'usini kuchaytirishda davlat va jamoat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorlik qilish;

g) jamiyatda umummilliy birdamlik, xorijiy davlatlar hududlari bilan do'stlik va birodarlik aloqalarini rivojlantirishga oid targ'ibot ishlarini tizimli olib borish.

6. Belgilab qo'yilsinki:

a) Qo'mita xodimlariga yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lash razryadlariga ko'ra tarif koeffitsiyentlari va bazaviy lavozim maoshlari 3 baravar (Qo'mita rahbariyatiga 4 baravar) miqdorda qo'llanadi;

b) Qo'mita xodimlari oylik maoshining 50 foizi miqdorida

Qo'mita xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasi shakllantiriladi;

v) Qo'mita boshqaruv xodimlari uchun avvalgi ish joyida harbiy va maxsus unvonlar (martaba darajalari, malaka toifalari, diplomatik darajalar va boshqalar) uchun berilgan ustama va qo'shimcha to'lovlar saqlab qolinadi;

g) Qo'mitadagi ishlangan davr harbiy va maxsus unvonlarni (martaba darajalari, malaka toifalari, diplomatik darajalar va boshqalarini) olish uchun zarur bo'lgan ish stajiga qo'shiladi;

d) Qo'mita boshqaruv xodimlarining lavozim maoshiga rag'batlantirish koeffitsiyenti hisobga olingan holda davlat organlaridagi ko'p yillik mehnati uchun 2 yildan 5 yilgacha – 0,1; 5 yildan 10 yilgacha – 0,2; 10 yildan 15 yilgacha – 0,3; 15 yildan 20 yilgacha – 0,4; 20 yildan ortiq – 0,5 koeffitsiyentlarda har oylik ustamalar to'lanadi.

7. Qo'mita boshqaruv xodimlari tarkibi yuklatilgan vazifalarga mos, ularni professional darajada amalga oshirishga qodir bo'lgan malakali, zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega (ustuvorlik asosida sotsiolog, siyosatshunos, xalqaro munosabatlar sohasidagi mutaxassislar, tarixchi, yurist, filolog) bo'lgan mas'uliyatli kadrlar bilan ta'ldirilishini ta'minlasin.

8. Qo'mita:

a) o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari davlat organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi;

b) sohada faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat tashkilotlarga doimiy ravishda axborot, maslahat, tashkiliy va uslubiy jihatdan ko'maklashib boradi.

9. Tashqi ishlar vazirligi xorijiy mamlakatlarda faoliyat olib borayotgan turdosh tashkilotlar, o'zbek madaniy markazlari va jamiyatlari haqida ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritishda, shuningdek, xorijiy mamlakatlarda faoliyat olib borayotgan tegishli tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishda va rivojlantirishda Qo'mitaga amaliy yordam ko'rsatsin.

10. Qo'mita xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek, Qo'mitaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bilan bog'liq xarajatlar 2025-yilda Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondidan "Vatandoshlar" jamoat fondiga ajratilgan davlat subsidiyasi mablag'larini hisobidan amalga oshirilsin hamda 2026-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti parametrlarida ko'zda tutilsin.

11. Qo'mita:

a) "Vatandoshlar" jamoat fondi, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlariga doimiy ravishda axborot, maslahat, tashkiliy va uslubiy jihatdan ko'maklashib borsin;

b) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2026-yil 1-yanvargacha qadar Umummilliy birdamlikni ta'minlash sohasida davlat siyosati konsepsiyasi va Xorijdagi

vatandoshlar bilan aloqalar sohasida davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash bo'yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini Vazirlar Mahkamasiga kiritin.

12. Qo'mita Toshkent shahri Bobur ko'chasi 45-uyda joylashtirilsin.

Belgilansinki, Toshkent shahrida faoliyat yurituvchi va o'z binolariga ega bo'lmagan milliy madaniy markazlar, "Vatandoshlar" jamoat fondi va "O'zbekiston" jurnali tahririyati" davlat muassasasi ushbu manzilda joylashgan binoning Qo'mita tomonidan belgilanadigan joylariga bepul foydalanish huquqi asosida joylashtiriladi.

13. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi belgilangan tartibda Qo'mitani zarur aloqa vositalari, shu jumladan, hukumat aloqa vositalari bilan ta'minlasin.

14. Qo'mita boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritin.

15. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,  
2025-yil 19-mart

## TURIZM TA'LIMIDA NOYOB IMKONIYAT

So'nggi yillarda mamlakatimiz xalqaro turizmning jozibador markazlaridan biriga aylanib ulgurd. 2024-yil natijalariga ko'ra yurtimizga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 8,6 million nafarga yetib, ularga 2,7 milliard dollarlik xizmatlar ko'rsatildi. Ushbu ko'rsatkich 2023-yildagiga nisbatan 1,5 barobar ko'p.

## Munosabat

Turizm, bu – ham investitsiya, ham eksport, ham yangi ish o'rinlari yaratilishi va kambag'allikni qisqartirish, degani. Tashabbus va loyihalarini amalga oshirish, ilmiy asoslangan tahlil va takliflarni ishlab chiqish, turizm sohasini malakali kadrlar bilan ta'minlashda ta'lim tizimining o'rni juda muhim, albatta.

Buxoro davlat universitetida turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash, ilmiy izlanishlar olib borish, bunda ilg'or tajribadan foydalanish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilib, bazaviy fakultet sifatida iqtisodiyot va turizm fakulteti faoliyat ko'rsatmoqda. Yaqinda fakultetning turizm sohasidagi ta'lim dasturlari

Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) ning "TedQual" akkreditatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tkazildi. E'tiborga molik jihati, Buxoro davlat universiteti O'zbekistonda "TedQual" akkreditatsiyasi olgan birinchi, Markaziy Osiyoda esa ikkinchi ta'lim muassasasi bo'ldi.

Turizm ta'limi sifatini oshirish maqsadida turizm va mehmonxona xo'jaligi yo'nalishlarida ma'ruzalar o'qish uchun so'nggi yillarda xorijlik 30 nafar professor-o'qituvchi jalb qilindi. 35 ga yaqin mutaxassislik fanlari ingliz tilida o'qitilmoqda. Ayniqsa, ushbu xorijlik o'qituvchilar aynan turizm rivojlangan Ispaniya, Italiya, Fransiya, Yaponiya,

Janubiy Koreya kabi mamlakatlardan kelgani e'tiborga molik.

Fakultetda xalqaro ilmiy hamkorlikka alohida e'tibor qaratiladi, 25 nafar professor-o'qituvchimiz yetakchi xorijiy mamlakatlarda ta'lim olgan, malaka oshirgan. "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiati sifatida esa 10 nafar o'qituvchi doktorantura va stajirovkalarda bo'lib qaytdi.

Jahonning eng yirik turizm markazlaridan biri bo'lgan Fransiya bilan turizm ta'limi sohasida o'ziga xos loyiha amalga oshirilmoqda. Bu loyiha 2019-yildan beri franshiza kelishuvi asosida "VATEL" mehmonxona va turizm biznes-maktabi bilan hamkorlikda yo'lga qo'yilgan "Xalqaro mehmonxona menejmenti" bakalavriat va magistratura dasturlari hisoblanadi.

"VATEL" guruhi 1981-yilda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda o'z ta'lim muassasalari, restoranlari, mehmonxonalari mavjud bo'lgan yirik

ta'lim klasteridir. Nufuzli QS akademik reytingining 2025-yilgi ko'rsatkichlariga ko'ra, "VATEL" turizm va mehmondo'stlik sohasida Fransiya 1-o'rinni, dunyoda esa 13-o'rinni egallab turibdi. Uning jahondagi mehmonxona va turizm boshqaruvi bo'yicha birinchi hamda eng yirik biznes maktablar guruhi ekanligi ahamiyatga molik. Bugungi kunda jahon bo'ylab 50 dan ortiq shaharlarda "VATEL" filiallari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, talabalar soni 9 mingdan, bitiruvchilar soni 39 mingdan ziyodni tashkil etadi.

"VATEL" guruhi doirasida ilmiy tadqiqotlarni olib borish va natijalarni havola qilish uchun "CIRVATH International Book of Tourism" ilmiy to'plami chop etiladi. U "VatelConnect" platformasida barcha filiallar uchun ochiq manba sifatida joylashtirilgan.

Loyihaning noyobligi shundaki, filiallar o'rtasida talabalar almashinuvini yo'lga qo'yish uchun maxsus "Marko Polo"

dasturi amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bunda talabalar boshqa mamlakatdagi "VATEL" filialida bir yoki ikki semestr davomida grant asosida ta'lim olish yoki amaliyot o'tashi mumkin bo'ladi. Shuningdek, "VATEL" ta'lim dasturlarining asosiy mazmuni amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Talabalar amaliyoti 4 va 5 yulduzli mehmonxonalarda tashkil etilishi ular gastronomiya bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarni egallashlarida muhim hisoblanadi.

Buxoro davlat universitetidagi "VATEL" dasturi bo'yicha talabalar jahon standartlari asosida bilim olib, dunyo bo'yicha tan olinadigan Fransiya diplomiga ega bo'ladi. Ta'lim to'liq ingliz tilida olib boriladi. Talabalarining malakaviy amaliyotlari Fransiya, Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklaridagi mehmonxonalarda tashkil qilinadi. Natijada ularning kasbiy mahorati oshib, talabalik

davridayoq mehmonxonalarda, turizm kompaniyalarida ish bilan ta'minlanadi.

Bugungi kunda "VATEL" guruhi tomonidan mehmonxona va turizm sanoati uchun qisqa muddatli kurslar yoki 2 yillik kasbiy tayyorgarlikni, diplomli dasturlarni taklif etuvchi "VATEL Academy" tarmog'i yaratilmoqda. Yaqin kelajakda ushbu tizim O'zbekistonda ham joriy qilinadi. Bundan tashqari, "VATEL" dasturlarini yurtimizning boshqa hududlarida, qolaversa, qo'shni mamlakatlarda yo'lga qo'yish borasida ish olib borilyapti. Natijada malakali kadrlar yetkazib berish bilan bir qatorda yangi ish o'rinlarini yaratish, investitsiyalarni jalb qilish borasida ham yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Xullas, Fransiya turizm ta'limining bir namunasi bo'lgan "VATEL" biznes-maktabini O'zbekiston – Fransiya hamkorligining o'ziga xos namunasi sifatida baholash mumkin.

Abror JO'RAYEV,  
Buxoro davlat universitetining  
xalqaro hamkorlik bo'yicha  
prorektori.

O'zbekiston delegatsiyasi BMT Giyohvandlik vositalari bo'yicha komissiyasining navbatdagi sessiyasida ishtirok etdi.

Senatda uchrashuv

KUN TARTIBIDA – TAJRIBA VA G'OYALAR ALMASHINUVI

Kecha Oliy Majlis Senatida jahon miqyosidagi yetakchi ta'lim muassasalari – Garvard universiteti va Massachusetts texnologiya instituti talabalari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.



Unda O'zbekistondagi iqtisodiy, ta'lim va davlat boshqaruvi sohasidagi keng ko'lami ishlohtlar, yoshlarni ham taromonlarga ko'lab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar, qonunchilikdagi ijobiy o'zgarishlar haqida suhbatlashildi.

O'z navbatida, Garvard universiteti va Massachusetts texnologiya instituti magistrantlari hamda doktorantlari yurtimizdagi ochiq va

pragmatik tashqi siyosatga katta qiziqish bildirib, bu yo'nalishdagi tajribalar bilan yaqindan o'rtog'lashish istagini bildirdilar.

Uchrashuvda Senat Raisi Tanzila Norboeva ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashda yoshlarning o'rni muhimligini, ayniqsa, zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish va yoshlarimizning global miqyosdagi ilmiy hamjamiyatiga sohasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bilan bir qatorda, ikki davlat aloqalarini yangi bosqichga olib chiqishga, yoshlar o'rtasida o'zaro tajriba almashishga va qo'shma loyihalarni amalga oshirishga zamin yaratadi.

Davra suhbatlari

MILLAT SALOMATLIGI GAROVI

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi hamda Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi bilan hamkorlikda "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunni yangi tahrirda ishlab chiqishga bag'ishlangan davra suhbatlari o'tkazildi.

Tadbirida ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan munozir shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlarni yaratish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkil etish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda.

2022–2024-yillar davomida sport sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan Prezidentning 88 ta Farmon va qarori hamda hukumat hujjatlari imzolangan soha taraqqiyotining huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Davlat byudjetidan sportga ajratilayotgan mablag' 1,5 trln. so'mdan 3 trln. so'mga oshirildi, 101 ta yirik sport obyekti yangidan qurildi, 67 tasida rekonstruksiya ishlar bajarildi. Buning natijasida ko'plab nufuzli musobaqalarda O'zbekiston vakillari yuqori marralarni zabt etdi.

Xususan, Parijda bo'lib o'tgan Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida tarixiy natija qo'lga kiritilib, mamlakatimiz sportchilari

umumjamoa hisobida 13-o'rinni egalladi. Ushbu tarixiy g'alabalar o'z-o'zidan yuz bermagani, uning zamirida qanchadan-qancha mashaqqatli mehnat va katta sarmoya yotgani hych kimga sir emas.

Davra suhbatida so'zga chiqqanlar "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun 2015-yilda qabul qilinganligini, uni yangi tahrirdagi Konstitutsiyadan kelib chiqib takomillashtirish, bugungi davr talablariga moslashtirish, soha vakillarining qonuniy huquqlari va manfaatlarini ifodalovchi to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan normalar bilan boyitishga ko'proq ahamiyat qaratish kerakligini ta'kidlashdi.

Ushbu masalaga daxldor vazirlik va idoralar o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi, tashabbuskor bo'lishi, hayotiy va amaliy tajribalardan kelib chiqib, jahondagi ilg'or tajribani inobatga olgan holda, yangi tahrirda tayyorlanayotgan qonun loyihasiga takliflar bildirishi lozimligi aytib o'tildi.

Tadbirda yakunida davlat organlari va nodavlat tashkilotlari o'rtasida o'zaro manfaatli yo'nalishlarda hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha takliflar ilgari surildi.

«Xalq so'zi».

FRAKSIYALAR HAYOTI

O'zLiDeP

19-mart kuni Prezidentimiz kichik va o'rta biznes vakillari bilan uchrashuvda 2025-yil uchun sohadagi asosiy maqsad va vazifalar haqida to'xtalib, yangi tashabbuslarni ilgari surdi.

O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Nargiza Salomova oxirgi yillarda bunday uchrashuvlar an'anaga aylanganini qayd etib, bu haqda ijtimoiy tarmoqdagi sahifasi orqali munosabat bildirdi.

"Ko'pchilik tadbirkorlik, biznes bilan shug'ullanish kerak, qo'shimcha daromad ziyon qilmaydi, deb ko'p ta'kidlaydi. Lekin yurak yutib tadbirkorlikka qo'l urishdan cho'chiydi. Nega? Chunki xato qilib qo'yishdan qo'rqadi. Qolaversa, yangi tadbirkorlikni boshlaganlar ko'pincha huquqiy va ma'muriy qoidalarni to'liq tushunib ulgurishmaydi. Bu esa turli ma'muriy javobgarliklarga olib kelishi mumkin. Ana shundan kelib chiqqan holda, davlatimiz rahbari tashabbus bilan tadbirkorlikka endi qadam qo'yanlar uchun "birinchi imkoniyat" tamoyil joriy etiladigan bo'ldi. Ya'ni ilk bor ma'muriy huquqbuzarlikka yo'l qo'yg'an tadbirkor javobgarlikdan ozod qilinib, kamchilikni bartaraf etish uchun imkoniyat beriladi", deydi deputat.

"Milliy tiklanish" DP

Qonunchilik palatasining yaqinda bo'lib o'tgan yalpi majlisida Soliq kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ko'rib chiqilib, Senatga yuborildi.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Ruslan Jumamuratov mazkur hujjat bilan Soliq kodeksiga ortiqcha undirilgan soliq summasini soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha kelgusi to'lovlari uchun hisobga olish tartibini soddalashtirish, ayrim toifadagi shaxslarga soliq imtiyozlarini taqdim etish hamda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilayotganini, bu esa soliq to'lovchilarning huquqlarini ta'minlashga xizmat qilishini ta'kidladi.

"Yana bir ahamiyatli jihati, "Mahalla servis" kompaniyalari tomonidan mahallalarni obod qilish bilan bog'liq ishlarni bajarish hamda belgilangan tartibdagi mahalla aholisiga ijtimoiy ahamiyatli pullik xizmatlar ko'rsatish orqali topilgan daromadlarga soliq solinmasligi ko'zda tutilmoqda", deydi deputat.

"Adolat" SDP

Quy yil palataniy shu hafta boshida bo'lib o'tgan majlisida mahkumlarni axloqan tuzatish ishlari samaradorligini oshirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqilib, qizg'in muhokamalarga sabab bo'ldi.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari Robaxon Mahmudova qonun loyihasi bilan amaldagi qonunlarimizga kitob o'qigan mahkumlarning zayo muddatini qisqartirish bilan bog'liq qo'shimcha kiritish taklif etilayotganini qo'llab-quvvatladi.

"Bilamizki, ma'rifat insonni kamolotga yetaklaydi. Shu nuqtai nazaridan aytqanda, loyihadagi nazarda tutilgan kitob muloaasi mahkumlarning ma'nani rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa jamiyatga hurmat ruhini shakllantiradi va shaxsiy o'sishga xizmat qiladi. Kitob o'qish mahkumlar jazoni shunchaki o'tashi emas, balki ularning axloqi yaxshi tomonga o'zgarishiga ham yordam beradi. Bu insonparvar tizimni shakllantiradi. Mahkumlarning kitob o'qishini rag'batlantirish orqali esa ularning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishiga imkoniyat yaratiladi", deydi fraksiya rahbari.

O'zXDP

Bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik huquqi tashabbusi asosida ishlab chiqilgan ma'muriy huquqbuzarliklarida jabrlanuvchilarning huquqlari himoyasini kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasi Qonunchilik palatasining majlisida birinchi o'qishda qabul qilindi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Anvarjon Nurmatov loyiha bilan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish amaliyotiga joriy etilayotgan xususiy ayblov instituti haqida o'z fikrlarini bildirdi.

"Deylik, kimdir sizga nisbatan noqonuniy harakat qilsa, buning uchun javobgarlikka tortish faqat sizning arizangiz bilan boshlanishi kerakligiga oid norma loyihadagi belgilanmoqda. Mazkur yangilik jabrlanuvchining huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga, uning shaxsiy hayotiga asossiz aralashuvning oldini olishga xizmat qiladi", deydi deputat.

O'zbekiston Ekologik partiyasi

19-mart kuni "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ekolog" faxriy unvonini ta'sis etish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Davlatimiz rahbari taklif bilan ta'sis etilgan mazkur faxriy unvon mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini rivojlantirish, tabiatni asrab-avaylash, biologik xilmaxillikni saqlash, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash borasida salmoqli natijalarga erishgan ekofoollarga beriladi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosi Oybek Otamuratov bu haqda o'z munosabatini bildirdi. "Aholining ekologik madaniyatini oshirish, yosh avlodni tabiatga hurmat ruhida tarbiyalash hamda tizimda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash borasida fidokorona mehnat qilayotgan mutaxassis-xodimlarga va sohaning boshqa vakillariga, shuningdek, mazkur yo'nalishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirayotgan ekofoollarga ushbu mukofotning berilishi, albatta, e'tiborga molik. Bu, o'z navbatida, faol, jonkuyar ekologlarning mehnatini rag'batlantirish orqali ularni qo'llab-quvvatlash, qadrlashga xizmat qiladi", deydi deputat.

«Xalq so'zi».

Qo'shma majlis

MAISHIY KORRUPTSIYA HOLATLARI KO'P UCHRAMOQDA

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi hamda Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi hamkorligida qo'shma majlis bo'lib o'tdi.

Senatorlar, deputatlar, mahalliy Kengashlar, Yoshlar parlamenti a'zolari, tegishli vazirlik va idoralar vakillari hamda OAV xodimlari ishtirok etgan tadbirida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishida belgilangan vazifalar ijrosi muhokama markazida bo'ldi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda korruptsiyaga qarshi tizimli ishlar amalga oshirilganiga qaramay, fan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida ushbu muammo hanuz saqlanib qolmoqda.

Xususan, sog'liqni saqlash tizimida shifokor qabulidan tortib mutaxassislik muassasalariga yo'llanma olishgacha bo'lgan jarayonlarda, maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabulda hamda pedagoglarni ishga joylashtirishda maishiy korruptsiya holatlari uchrayotgani achinarlidir. Shuningdek, oliy ta'limda raqamlashtirish joriy etilganiga qaramay, ijodiy va oraliq imtihonlarda korruptsiyaviy elementlar saqlanib qolayotgani ta'kidlandi.

Yig'ilishda parlament qo'mitalari o'z yo'nalishlari bo'yicha vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda korruptsiyaga sabab bo'layotgan omillarni aniqlash va bartaraf etish yuzasidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilab oldi. Shuningdek, Maktabgacha va maktab ta'limi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar hamda Sog'liqni saqlash vazirliklari rahbarlarining axborotlari eshitildi.

Yakunda ishtirokchilarning taklif va tavsiyalari asosida sohalardagi korruptsiyani bartaraf etish bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilab olindi.

«Xalq so'zi».

O'ZARO ISHONCHGA ASOSLANGAN AZALIY SHERIKLIK

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiyaga qilgan davlat tashrifiga hali ko'p vaqt bo'lmadi. Shunday bo'lsa-da, dunyo nigohi bu tarixiy tashrif va uning doirasida erishilgan natijalarga qaratilgan.

Mushohada

Haqiqatan ham, O'zbekiston va Fransiya o'rtasida strategik sheriklik munosabatlarining o'rnatilganligi nafaqat ikki mamlakat, balki Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi mintaqalari rivojida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boisi O'zbekiston, Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi o'rin tutsa, Fransiya ham Yevropa Ittifoqining markaziy davlatlaridan hisoblanadi. Agar raqamlarga e'tibor qaratsa, Fransiya iqtisodiy jihatdan Yevropada uchinchi, jahonda yettinchi o'rinda turuvchi o'lkadir. Mamlakatlarimizni bir necha ming kilometrlik masofa ajratib tursa-da, savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalar tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Xususan, sohibqiron Amir Temur Fransiya qiroli Karl VI bilan maktab almashib, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. Qolaversa, Yevropaning boshqa davlatlariga qaraganda Fransiya da Sohibqiron va temuriylar haqida ko'plab ilmiy, badiiy asarlar yaratilgan, buyuk jahongirning davlatchilik siyosati chuqur o'ranganilgan.

Oxirgi yillarda esa yanada

sezilarli muvaffaqiyatlarga erishildi. Xususan, Sorbonna universiteti huzuridagi Sharq tillari va sivilizatsiyalari milliy institutida o'zbek tili kurslari ochildi. 2018 – 2022-yillarda turizm, arxeologiya, dizayn va moda, fransuz filologiyasi, aviatsiya, inklyuziv ta'lim, biznesni boshqarish, energetika, siyosatshunoslik, aviatsiya va boshqa sohalarda 30 dan ortiq kelishuv hamda memorandumlar imzolangan. Toshkent davlat transport universiteti tarkibida Fransiya fuqaro aviatsiyasi milliy maktabi bilan birgalikda fuqaro aviatsiyasi uchun uchuvchilarni tayyorlash maktabi ochildi.

Samarqand va Lion, Buxoro va Ruy-Malmeson shaharlari, Jizzax viloyatining Zomin tumani va Normandiya mintaqasining Fler shahri o'rtasida birodarlashgan shaharlar to'g'risidagi bitim imzolangan. 2019-yilda Buxoro shahri bilan birodarlik aloqalari o'rnatilganining 20 yilligi munosabati bilan Ruy-Malmeson markaziy "Do'stlik" istirohat bog'ida buyuk tabib Abu Al ibn Sino haykali o'rnatilgan "O'zbek bog'i" ochildi.

Bu ro'yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin. Prezidentimizning bu galgi davlat tashrif ham tarix sahifalariga zarhlar harflar bilan yoziladigan voqealarga boy bo'ldi.

Tashrif doirasida Yelisey saroyida oliy darajadagi O'zbekiston – Fransiya muzokaralari bo'lib o'tdi. Uchrashuv chog'ida ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiya-moliyaviy sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, Fransiyaning yetakchi kompaniya va korxonalar bilan kooperatsiya loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuvning eng muhim jihatlardan biri – ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari, investitsiya va bank-moliya institutlarining 60 dan ortiq rahbarlari va vakillarining shartnomalar tuzishda ishtirok etganligi bo'ldi. Ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishda ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari muhim o'rin tutayotgani uchrashuvda alohida aytildi.

Tashrifning asosiy natijasi O'zbekiston – Fransiya munosabatlarida strategik sheriklik darajasiga ko'tarish haqida tarixiy qaror qabul qilinganligidir. Strategik sheriklik o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyaga asosan, Fransiyaning yetakchi kompaniyalari O'zbekistonda

2027-yilga qadar 6,5 milliard yevrolik istiqbolli kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishi ko'zda tutilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 13-mart kuni Parij shahridagi Burbon saroyida Fransiya Milliy Majlisi raisi Yael Braun-Pive bilan uchrashuv o'tkazdi. Unda ikki davlat o'rtasidagi parlamentlararo almashinuvni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. Fransiya parlamenti quy yil palatasi rahbari yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar, vakillik organlarining roli, xotin-qizlar, bolalar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari hamda ekologik xavfsizlik kafolatlari kuchayganini alohida e'tirof etdi.

Tashrif O'zbekiston – Fransiya munosabatlarida yangi davri boshlab berdi. Imzolangan kelishuvlar nafaqat ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklikni yanada mustahkamlashga, balki ushbu hamkorliklar orqali O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi yanada oshishi va iqtisodiy o'sishiga xizmat qilishi bilan e'tiborga molikdir.

Odiljon MAMATKARIMOV, Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlardagi tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning uzluksiz zanjiri

Keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari mutlaqo yangi yondashuvlar asosida rivojlantirilib, ularni kompleks qo'llab-quvvatlashning uzluksiz zanjirini yaratish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilyapti. Tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish va to'sqinlik qilish, ularning ishini asossiz to'xtatib qo'yish davlatimiz rahbarining siyosatiga qarshi chiqish, deya baholangan ishbiarmonlik taraqqiyotining muhim omili bo'ldi, desak, ayni haqiqat.

Aks sado

Qolaversa, ushbu yo'nalishda sohaga doir ko'plab qonunlar, Farmon hamda qarorlar qabul qilindiki, ular asosida ruxsatnomalarni rasmiylashtirish tartiblarini soddalashtirish, muddatlarni qisqartirildi. Ortiqcha tekshirishlar, naqd pul, valyuta va xomashyo bo'yicha ko'plab cheklorlar barham berildi. Tadbirkorlarga yaratilayotgan sharoitlar, berilayotgan imkoniyatlar tufayli yangi subyektlar keskin ko'payib, avvaldan ishlayotganlari o'z faoliyatini yanada kengaytirdi.

Ochig'ini aytish kerak, bir paytlar odamlar tadbirkorlik qilishga qo'rqardi, o'zining ishbilarmon ekanini sir tutadigan zamonlar ham bo'ldi. Bugunchi? Vaziyat mutlaqo boshqacha. Chinakam tadbirkor qiyofasi, haqiqiy ishbilarmonlik muhiti yangi O'zbekistonda shakllandi, desak, aslo

mubolag'a bo'lmaydi. Ayni paytda yurtimizda tadbirkorlik iqtisodiyotimiz lokomotiviga, soha vakillari esa zamonamiz qahramonlariga aylandi.

Prezidentimizning ushbu sohaga yurtimizda "tadbirkor bo'laman" degan fuqarolar soni yildan-yilga ko'payib borayotir. Buni raqamlarda ifodalaydigan bo'lsak, Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra respublikamizda 2025-yil 1-mart holatiga birgina savdo sohasida ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni 237 ming 776 tani tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davri bilan solishtirilganda 1,1 barobarga oshgan.

Bugun bir mahallada o'nlab tadbirkorlar ish boshlayapti. Muhimi, o'zgarishlarni, yangilanishlarni biznes vakillari ham kundalik faoliyatida sezib, his qilib yashamoqda. Ular davlat himoyasida ekanliklarini bilishadi. Bu nimalarda ko'rinadi?

Buni Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqot yo'lga qo'yilganiga yaqqol ko'rish mumkin. Ushbu amaliyot ishbilarmonlarning muammo hamda takliflarini bevosita o'rganish, erkin muloqot asosida biznesni rivojlantirish bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilab olishga qaratilgan ishlarni yanada yuqori bosqichga ko'tarmoqda.

Davlatimiz rahbarining kichik va o'rta biznes vakillari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvi ham ana shunday islohtlar, muloqotlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Mamlakatimiz rahbarining biznes vakillari bilan uchrashuvi shunchaki muloqot bo'lib qolmasdan, balki sohadagi muammolar o'rtaga tashlanib, aniq yechimlar berilgani bilan g'oyatda muhimdir. Bu barqaror iqtisodiy o'sish va rivojlanishga intilayotgan yurtimizda tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish borasida salmoqli qadamlar qo'yilayotganidan dalolatdir.

Qizg'in kechgan muloqot davomida davlatimiz rahbari yurtimizda bu soha ish o'rni, investitsiya, innovatsiya, raqobat, qo'shilgan qiymat va eksportni ko'paytirishga eng katta turkib berayotgan yo'nalishga aylanganini, so'nggi besh yilda kichik va o'rta tadbirkorlar soni 2 karra ko'payganini ta'kidladi.

Albatta, davlatimiz rahbarining shaxsan o'zi tadbirkorlar bilan uchrashayotgani bejiz emas. Boisi to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rtadagi ishonchni, umidni uyg'otishda, yangi-yangi marralarni belgilab olishda, asosiy, biznesmenlariga yanada ko'proq imtiyoz va imkoniyatlarni yaratib berishda qo'l keladi. Bu gal ham shunday bo'ldi. Davlatimiz rahbari o'z so'zida "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – bizning strategik yo'limiz" deya ta'kidlaganining o'zi ishtirokchilarga katta ishonch va motivatsiya, aslida.

E'tibor beradigan bo'lsak, o'rta va kichik biznesda 10 million 500 ming odam – jami band aholining 74 foizi daromad topib, ro'zg'or tebratmoqda. Iqtisodiyot hajmining yarmidan ko'pi, sanoat va eksportning uchdan biri shu soha vakillari hissasiga to'g'ri kelayotir. Ushbu raqamlarning o'ziyoq mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun kichik hamda o'rta biznes qanchalik muhimligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Prezidentimiz shu bois bo'yonalishga qo'llab-quvvatlash bundan keyin ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishini ta'kidladi.

Darvoqe, tadbirkorlikni rivojlantirish oson ish emas. Buning uchun tinimsiz mehnat, izlanish va


harakat talab qilinadi. Zamon bilan hamnafas bo'lmasa, u yutqazadi. Shu ma'noda, ushbu tarixiy uchrashuv tadbirkorlarni, ayniqsa, endi "oyoqqa turayotgan" ishbilarmonlarni ruhlantirish, qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirishda muhim platforma vazifasini o'tadi, deyish mumkin.

Davlatimiz rahbari yangi tadbirkorlarning "oyoqqa turib olishi" uchun, ayniqsa, faoliyat boshlagan birinchi yilda ularni qo'llab-quvvatlash juda muhimligini ta'kidlab, bundan buyon, tadbirkorlikka endi qadam qo'yganlar uchun "birinchi imkoniyat" tamoyil joriy etilishini ma'lum qildi. Ya'ni ilk bor ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan tadbirkor javobgarlikdan ozod qilinib, kamchilikni bartaraf etish uchun imkoniyat beriladigan bo'ldi. Endilikda yangi ish boshlagan tadbirkorlar birinchi xato uchun "javobgarlikdan sug'urtalangan" bo'ladi.

Demak, tadbirkorlikka yanada keng ko'lama e'tibor qaratiladi, ishbilarmonlik tashabbuslari to'liq qo'llab-quvvatlanadi. Bu esa pirovardida mamlakatimizda tadbirkorlik rivoji yangi bosqichga ko'tarilishini kafolatlaydi.

Muqaddasxon AHMEDOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Barhayot satrlar



**Abdulla ORIPOV,**  
**O'zbekiston Qahramoni,**  
**xalq shoiri.**

**BAHOR XOSIYATI**

Qarangki, bahorning vazifasi yo'q.  
Biron mahkamadan maosh olmas u.  
Unga kor qilgaysir na araz, na do'q,  
Safarga chiqdimi, kelmay qolmas u.

Yuksak qasrlarni burkar chechakka,  
Gado kulbasini bezar sarosar!  
Ezgulik bobida faqat u yakka,  
Faqat u barchaga teng va barobar.

Ko'ngil darichasin ochib qo'ying lang,  
G'ussali dilda ham kuladi bahor,  
Umidvor insonlar, uni olqishlang,  
Faqat xosiyatli bo'ladi bahor.

\*\*\*

Avval yuragingga mo'ralaydi u,  
So'ngra kurtaklarga o'rgatadi so'z.  
Zaminning ko'zidan qochadi uyqu,  
Demak, Bahor keldi,  
Kelmoqda Navro'z.

Qishning ahvoliga boqib hoynahoy,  
Yum-yum yosh to'kmoqda eriyotgan muz.  
Jilva qilayotir tengsiz bir chiroy,  
Demak, Bahor keldi,  
Kelmoqda Navro'z.

Ona bag'ri kabi iliqdir olam,  
Harir hovur ichra yayrar dala-tuz.  
Qoldi puchmoqlarda xazon yanglig' g'am,  
Demak, Bahor keldi,  
Kelmoqda Navro'z.

Yana ko'ngillardan rutubat ketdi,  
Yana shu'lalardan qamashmoqda ko'z.  
Yana dildorlikning fursati yetdi,  
Demak, Bahor keldi,  
Kelmoqda Navro'z.

**Qadriyatlari boqiy Navro'z!**

Navro'z azaldan bahor, tabiat uyg'onishi, yangi hayot ramzi hisoblanadi. Bu ayyom barchani jipslashtirib, qalblarni iliqlik, yorug'lik va kelajakka ishonch hislari bilan to'ldiradi. Ushbu kun shahar va qishloqlar, ko'chayu bog'lar ohanrabo musiqa, maftunkor raqs, mayin tabassumlarga yo'g'rilgan go'zal manzaralarga to'ladi. Aftidan, tabiatning o'zi odamlar bilan birga quvonib, qalblarga yangilanish tuyg'usini baxsh etadi.

**Ijtimoiy fikr**

Garchi yillar o'tib an'analar o'zgarsa-da, Navro'z ezgu umidlar va mehr-oqibat bayrami bo'lib qolmoqda. Aynan mana shu qattug' va nurafshon kun arafasida "Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan mamlakatimiz fuqarolari o'rtasida so'rov o'tkazildi. Unda o'zbekistonliklar uchun Navro'zning ahamiyati, ularning qalbiga yaqin an'ana va udumlar, bayramni nishonlash rejalari aniqlandi. Tadqiqotda mamlakatimizning barcha mintaqasidan erkaklar va ayollar, yoshlar, o'rta va katta yoshdagi fuqarolar, davlat va jamiyat hayotining turli jabhalarida band bo'lgan har xil ijtimoiy qatlam vakillari qatnashdi.

So'rov natijalari ko'rsatganidek, asrlar osha bizgacha yetib kelgan ushbu qadimiy bayram avlodlar o'rtasidagi nishtalarni, o'zaro mehr-oqibat va birdamlik kabi azaliy qadriyatlarini mustahkamlab, o'zbekistonliklar hayotining muhim qismiga aylangan.

Jamoatchilik fikrida Navro'z bahor va yangilanish timsoli, yangi umidlar va ezgu tashabbuslar davri ekani haqidagi tasavvur ustuvorlik qiladi. Bayram kishilarni jipslashtiruvchi, xonadonlarni oilaviy uchrashuvlar tafti va muloqot quvonchiga to'ldiruvchi muhim milliy voqeya sifatida idrok etiladi.

Shubhasiz, Sharqona taqvimga ko'ra Navro'zning yilboshi – istiqbolning yangi kuni sifatidagi ahamiyati g'oyat muhim. Aksariyat respondentlar bu kuni oila va do'stlar davrasida nishonlash niyatida. Fuqarolar uchun bayramda oilaviy muhit, oila a'zolari hamda do'stlar bilan jam bo'lish, ular bilan o'zaro

quvonch ulashish va iliq muloqot qilish imkoniyati qadri. Yurtdoshlarimiz uchun bayramning muhim qismi an'anaviy taomlar bilan bezatilgan bayramona dasturxon hisoblanadi. Xalq sayillari esa bayramning yana bir ahamiyatli jihati. Konsertlar,

**“Jamoatchilik fikri so'rovi natijalari Navro'z taqvimdagi shunchaki oddiy bir sana emas, balki an'analar, oilaviy qadriyatlar, yaqinlarimizga g'amxo'rlik, tabiat bilan hamohanglik his-tuyg'ulari chambarchas bog'lanib ketadigan jonli, serqirra bayram ekanini tasdiqladi. Aksariyat fuqarolar uchun nafaqat bayramning o'zi, balki uning an'anaviy udumlari ham muhim, binobarin, ularsiz Navro'z bu qadar sevimli va ardoqli bo'lmadi.”**

raqslar, sport musobaqalari – bularning barchasi sayillarni yanada jonlantiradi, quvonch va hamjihatlik muhitini yaratadi. Mehmondo'stlik an'anasi fuqarolarning anchagina qismini o'ziga jalb qiladi – respondentlar mehmon kutishni yoki o'zlari mehmonga borishni istaydi.

So'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbekistonliklar uchun Navro'z o'z ahamiyatini yo'qotmagan: 71,9 foiz fuqarolar uni o'ziga xos, ezgu his-tuyg'ular va quvonchli taassurotlarga to'la bayram, deb biladi.

Bahor kelishi bilan nafaqat tabiat, balki odamlar ham jonlanadi – kayfiyat yangilanadi, his-tuyg'ular uyg'onadi, fikr va tuyg'ularda o'zgacha yangilik paydo bo'ladi. Navro'z ortga nigoh tashlab, xulosa chiqarish, natijalarni hisob-kitob qilish, ayni vaqtda yangi umidlar bilan to'lib-toshib, kelajakka quvonch bilan nazar tashlash

marrasiga aylanmoqda. So'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, bayram arafasida ko'pchilik kishilar aynan shunday yorqin, ilhomlantiruvchi his-tuyg'ularni boshdan kechirmoqda.

Shubhasiz, ayni kunlarda yurtimizda hukm surayotgan kayfiyat – bu shodlik va bayramdan rohatlanish hissidir. Albatta, buning hyech bir ajablanarli joyi yo'q: o'zbekistonliklar yaqinlari bilan uchrashish, noz-ne'matlar tayyorlash, an'anaviy tadbirlarni rejalashtirishga hozirlik ko'rmoqda. Ochiq yuz,



sumalak tayyorlashni bayramning eng muhim an'anasi, deb biladi. Respondentlar uni asosiy udumlar qatorida qayd etdi. Javoblar bu udumning mamlakat madaniy hayotida qanchalik chuqur idiz otgani va o'zbekistonliklar uchun qanchalik muhimligini tasdiqlaydi.

Bayramning yana bir muhim an'anasi – qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar va do'st-birodarlarni ziyorat qilish. So'ralgan fikrcha, Navro'z kunlari do'stona uchrashuvlar, o'zaro mehmondorchiliklar, qarindoshchilik rishtalarini mustahkamlash odat tusiga kirgan.

Muhim an'analar qatorida respondentlar xalq sayillari, konsertlar va festivallarni, xonadon hamda ko'chalarni tozalash va bezash orqali bahorgi yangilanishni, shuningdek, sport musobaqalari hamda o'yinlarni ajratib ko'rsatdi. Xayriya tadbirlari va muhtojlarga yordam ko'rsatishni so'rov ishtirokchilari Navro'zning yana bir an'anasi deb biladi, chunki u azaldan xayriy ishlar va ezgu tashabbuslar davri bo'lgan.

Bu yil Navro'z bayrami Ramazon oyiga to'g'ri kelgani so'rovda ham o'z aksini topdi. Respondentlarning asosiy ko'pchilik qismi buni yaxshi mutanosiblik, deb hisobladi. Zero, har ikkala bayram ham ezgulik, poklanish, ma'naviy yangilanish va odamlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash g'oyalarni o'zida mujassam etgan.

Demak, o'tkazilgan so'rov natijalari Navro'z yurtimiz fuqarolari uchun avlodlarni birlashtiruvchi, ezgu ishlarga ilhomlantiruvchi, qalblarni quvonchga to'ldiruvchi bayram bo'lib qolayotganini ko'rsatdi. Asrdan-asrga o'tib kelayotgan an'analar kishilar qalbida aks sado berib, xayrixohlik hissini uyg'otib yashab kelmoqda.

**Dilshod KARIMOV**  
**(«Xalq so'zi») tayyorladi.**

РЕКЛАМА



**“FIDO-BIZNES” kompaniyasi jamoasi hamkorlar va kasbdoshlarni tabiatning uyg'onish davri – bahor bayrami – Navro'z ayyomi bilan qutlaydi! Hayotimizga bahor tafti bilan birgalikda tinchlik va farovonlik, omad hamda to'kinlik kirib kelsin! Har bir kunimiz munavvar bo'lib, shodlik, mehr va yaratuvchanlik ila to'lsin!**



**Futbol**

**Mundial sari yana bir qadam**

Kecha Osiyo qit'asi yashil maydonlarida futbol bo'yicha "Jahon chempionati – 2026"ga chiqish uchun 3-saralash bosqichining 7-tur uchrashuvlari bo'lib o'tdi.



Poytaxtimizdagi "Bunyodkor" stadionida O'zbekiston milliy terma jamoasi Qirg'iz Respublikasi futbolchilarini qabul qildi. O'yinning dastlabki daqiqalaridan ustunlikni qo'lga olgan vakillarimiz ketma-ket hujumlar orqali raqib darvozasi oldida xavfli vaziyatlarni yuzaga keltirishdi. 1-bo'limning 24-daqiqasida H. Aljonov raqib jarima maydoni ichida yiqitildi. Uchrashuvni boshqarib borgan yaponiyalik hakam Yu. Araki penalti belgilagan bo'lsa-da, VAR hakamlari bu holatni tekshirib chiqdi. Jarima zarbasi esa o'z kuchida qolib, raqib futbolchisi S. Datsiyevga qizil kartochka ko'rsatildi. Afsuski, E. Shomurodov penaltini golga

aylantira olmadi. Bahsning 40-daqiqasiga kelib hisob ochildi. A. Fayzullayevning ajoyib pasini H. Aljonov ohista zarbasi bilan darvozaga joylab qo'ydi. Bahs davomida ko'plab hujumlarni bartaraf qilgan raqib posboni E. Tokatayev o'z darvozasidan boshqa gol o'tkazmadi va uchrashuvda kichik hisob bilan O'zbekiston terma jamoasi zafar quchdi – 1:0.

Tur doirasida Eron milliy terma jamoasi BAA futbolchilari bilan kuch sinashib, 2:0 hisobda g'alaba qozondi. Qatar va KXDR jamoalari o'rtasidagi uchrashuv esa 5:1 hisobida qatariqlar g'alabasi bilan yakunlandi.

**Sunnatilla ISLOMOV**  
**(«Xalq so'zi»).**

Mamlakatimizning barcha istirohat bog'lari va mahallalarida Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan ko'ngilochar tadbirlar bo'lib o'tmoqda.

**Xalq so'zi**  
**Narodnoe slovo**

**MUASSISLAR:**  
**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi**  
**Qonunchilik palatasi Kengashi**  
**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi**  
**Senati Kengashi**

**Bosh muharrir O'tkir RAHMAT**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



**TELEFONLAR:**  
**Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;**  
**e'lonlar 71-259-74-55.**



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun qonunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
**100066,**  
**Toshkent shahri,**  
**Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.**  
Navbatchi muharrir F. Bozorov.  
Musahhah S. Islomov.

**“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:**  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.46 Topshirildi — 01.50 **1 2 3 4 5 6**